



## THE CONCEPT OF BENEFICIARY PROPERTY IN CIVIL LAW AND ITS CHARACTERISTICS

*Dilorom Khaitbayevna Rakhimova*

*Stylist*

*Department of Continuing Education, Tashkent State Law University*

*Tashkent, Uzbekistan*

*E-mail: [rakhimovadilorom97@gmail.ru](mailto:rakhimovadilorom97@gmail.ru)*

---

### ABOUT ARTICLE

---

**Key words:** Beneficiary, beneficiary property, trustee, trust, fiduciary relationship, interested person.

**Received:** 09.08.24

**Accepted:** 11.08.24

**Published:** 13.08.24

**Abstract:** In this article, the concept of beneficial ownership in civil law and the basis of its creation, determining its legal essence, harmonizing the rules of the application of this institution in Anglo-Saxon law with the continental legal system, clarifying the civil legal status of beneficial ownership, as well as creating the legal basis of this type of property, scientific research of the use of beneficiary property in different legal systems and its role in the system of obligations and legal basis for practice and improvement of the regulatory legislation of these relations are highlighted.

The essence of this legal institution is determined primarily by protecting the interests of owners and expanding the possibility of realizing their property rights.

---

## FUQAROLIK HUQUQIDA BENEFITSIAR MOL-MULK TUSHUNCHASI VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

*Dilorom Xaitbayevna Raximova*

*Uslubchi*

*Uzluksiz ta'lim boshqarmasi, Toshkent davlat yuridik universiteti*

*Toshkent, O'zbekiston*

*E-mail: [raximovadilorom97@gmail.ru](mailto:raximovadilorom97@gmail.ru)*

---

### MAQOLA HAQIDA

---

**Kalit so'zlar:** Benefitsiar, benefitsiar mulk, ishonchli boshqaruvchi, trust, fidusiar munosabat, foyda oluvchi, manfaatdor shaxs.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Fuqarolik huquqida benefitsiar mulk tushunchasi va uning vujudga kelishi asoslari, uning huquqiy mohiyatini aniqlash, ushbu institutning anglosakson huquqida qo'llanilishiga oid

qoidalarni qit'a huquq tizimiga uyg'unlashtirish, benefitsiar mulkning fuqarolik huquqiy maqomini aniqlashtirish, shuningdek mazkur mulk turinig huquqiy asoslarini yaratish, benefitsiar mulkning turli huquq tizimlarida qo'llanilishini ilmiy tadqiq etish va majburiyatlar tizimida tutgan o'rni va amaliyotga huquqiy asoslarini tadqiq etish hamda ushbu munosabatlarning tartibga soluvchi qonunchilikni takomillashtirish kabi masalalar yoritib berilgan.

Mazkur huquqiy institutning mohiyati birinchi navbatda bozor munosabatlari sharoitida vujudga kelgan mulkdorlar manfaatlarini himoya qilish va ularning mulkiy huquqlarini amalga oshirish imkoniyatini kengaytirish bilan belgilanadi.

---

## ПОНЯТИЕ ИМУЩЕСТВА БЕНЕФИЦИАРА В ГРАЖДАНСКОМ ПРАВЕ И ЕГО ХАРАКТЕРИСТИКА

*Дилором Хаитбаевна Рахимова*

*Стилятор*

*Кафедра непрерывного образования Ташкентского государственного юридического университета*

*Ташкент, Узбекистан*

*E-mail: [rakhimovadilorom97@gmail.ru](mailto:rakhimovadilorom97@gmail.ru)*

---

### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** Бенефициар, имущество бенефициара, доверительный управляющий, траст, фидуциарные отношения, заинтересованное лицо.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается понятие бенефициарного права в гражданском праве и основания его создания, определяющие его правовую сущность, гармонизацию правил применения этого института в англосаксонском праве с континентальной правовой системой, уточнение гражданско-правового статуса бенефициарного права, а также создание правовой основы данного вида имущества, научное исследование использования имущества бенефициара в различных правовых системах и его роли в системе обязательств и правовая основа для практики и совершенствования нормативного законодательства этих отношений. выделены.

Сущность этого правового института определяется прежде всего защитой интересов собственников и расширением возможностей реализации их имущественных прав.

## KIRISH

Mamlakat iqtisodiyotining asosini tashkil etuvchi mulk yuridik va jismoniy shaxslarning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini taminlashga xizmat qiladi. Shu jihatdan mulk iqtisodiy mazmuni bilan birgalikda yuridik mazmuniga ham ega hisoblanadi. Mulkning iqtisodiy mazmuni kishilarning erk-irodasidan tashqari holda vujudga keladi.

Mulkning yuridik mazmuni huquqiy munosabat subektlarning hatti-harakatlari bilan bog'liq bo'lib, ular muayyan huquqiy munosabatlarni vujudga keltiradigan, o'zgartiradigan va bekor qilishga qaratilgan harakatlarni sodir etadi.

Yuridik va jismoniy shaxslar o'z hayoti va faoliyati davomida mulkiy munosabatlarga kirishib, mulk huquqining obektlaridan o'z manfaatlarini yo'lida, o'z xohishiga muvofiq egalik qiladi, foydalanadi va tasarruf etadi.

Mulkiy munosabatlar insonlar o'rtasida paydo bo'ladi. Insonlar va ashyolar orasida mazkur munosabatlar yuzaga kelmaydi.

Shuni ta'kidlash joizki mulkiy munosabatlarda ashyoga nisbatan o'ziniki kabi munosabatda bo'luvchi mulkdor bilan ashyoga nisbatan o'zganiki kabi qarashga majbur mulkdor bo'lmagan uchinchi shaxslar ishtirok etadi.

O'z navbatida Yuridik mazmundagi mulk iqtisodiy mulk munosabatlarini huquq normalarida mustahkamlab qo'yish asosida vujudga keladi buning natijasida mulk huquqi sifatida gavydalanadi.

## ASOSIY QISM

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadlaridan biri bozor iqtisodiyoti qonuniyatlariga asoslangan yangi iqtisodiy munosabatlarni vujudga keltirish va ularni izchil huquqiy tartibga solishga qaratilgan qonunchilik bazasini yaratish hisoblanadi. O'tgan davrlar mobaynida respublikamizda bozor qonuniyatlari bilan uyg'unlikda bir qator yangi iqtisodiy-huquqiy mexanizmlar vujudga keldiki, ularning asosiy maqsadi mamlakatda tadbirkorlikni rivojlantirish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, sub'ektlarga tegishli huquqlarning amalga oshirilishini huquqiy jihatdan kafolatlashga qaratildi.

Benefitsiar mulk bilan bog'liq munosabatlar ham bozor munosabatlari qonuniyatlaridan kelib chiqib, mamlakatimizda amal qila boshlagan yangi fuqarolik-huquqiy institutlaridan biri ekanligini hisobga olgan holda mamlakatimiz huquq tizimida benefitsiar mulkni huquqiy tartibga solish bo'yicha yuzaga kelayotgan munosabatlarni huquq jihatdan tartibga solish masalasi dolzarbdir.

Benefetsiar mulkning mohiyati birinchi navbatda bozor munosabatlari sharoitida vujudga kelgan mulkdorlar manfaatlarini himoya qilish va ularning mulkiy huquqlarini amalga oshirish imkoniyatini kengaytirish bilan belgilanadi.

B.Topildiyevning ta'kidlashicha, mazkur mulkdan manfaatdor shaxs o'z mulkidan begonlashmagan («uzoqlashmagan») holda mulkiy huquqlarini amalga oshiradi va bu orqali foyda ko'radi.

Benefitsiar mol-mulkning huquqiy ma'qomini belgilashdan avval "Benefitsiar" atamasiga to'xtalib o'tish maqsadga muvofiq.

Benefitsiar atamasi XII–XIII asrlardayoq Angliyada shaklangan bo'lib, bevosita fidusiar munosabatlari bilan chambarchas bog'liq.

Zero, anglo–amerika huquq tizimi uchun xos bo'lgan mazkur institut benefitsiar mulk, deb atalishi bilan birga, ya'ni mol–mulkni ishonishga asoslangan — fidusiar (fiduciary ownership) va trast (trust) nomlari bilan ham keng tarqalgan. Mutaxassislarning ta'kidlashlaricha, mazkur huquqiy institutning vujudga kelishi uchun asosiy sabablardan biri feodal tuzdagi cheklovlar, shuningdek o'rta asr Angliyasi uchun xos bo'lgan yerni cherkov va monastr foydasiga o'tkazishni ta'qiqlash qoidalari hisoblangan.

"Benefitsiar" mulkni tushunishdagi qarama-qarshiliklarni tahlil qilish uchun uning kelib chiqish manbalari bilan boshlash maqsadga muvofiq bo'ladi, ya'ni an'anaviy umumiy huquqda mulk yoki mulkka bo'lgan qonuniy huquq va huquq o'rtasidagi bo'linishni tahlil qilish zarur.

Bundan alohida mavjud bo'lgan ushbu mulkdan iqtisodiy foyda olish to'g'risida fikr yuritiladi. Anglo-sakson mamlakatlarida "benefitsiar mulkdor" atamasining o'zi uzoq tarixga ega. Buyuk Britaniyaning huquqiy modeliga asoslangan huquqiy tizimga ega bo'lgan mamlakatlarda "qonuniy ega", "benefitsiar" va "nominal egasi" kabi tushunchalar ancha keng tarqalgan va tushunish osonroq bo'lib, bunda mulkchilik tushunchasining turli funktsional mazmunini aks ettiradi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 65-moddasida Fuqarolar farovonligini oshirishga qaratilgan O'zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakllardagi mulk tashkil etadi. Davlat bozor munosabatlarini rivojlantirish va halol raqobat uchun shart-sharoitlar yaratadi, iste'molchilarning huquqlari ustuvorligini hisobga olgan holda iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini kafolatlaydi.

O'zbekiston Respublikasida barcha mulk shakllarining teng huquqliligi va huquqiy jihatdan himoya qilinishi ta'minlanadi.

Xususiy mulk daxlsizdir. Mulkdor o'z mol-mulkidan qonunda nazarda tutilgan hollardan va tartibdan tashqari hamda sudning qaroriga asoslanmagan holda mahrum etilishi mumkin emasligi belgilab qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasi mansub bo'lgan Qit'a huquq tizimida mulk huquqi yagonaligi tan olinadi va mulk ajralmas toifadir va shuning uchun faqat qonuniy egalik huquqini tan oladi.

Bunda mulkdor yagona hisoblanadi bir ashyoga faqat bir shaxs egalik qiladi.

Ingliz –amerika tizimida mulk taqsimlanishi mumkin. Bunda bir ashyoga bir necha shaxslarning huquqi e'tirof etiladi.

Ko'plab adabiyotlarda Benefitsiar mulkdor ta'sis etilayotgan yuridik shaxs mol-mulkinging haqiqiy egasi deb e'irof etiladi.

Bunday hollarda mamalakatimiz qonunchiligida belgilangan norma qanday ishlaydi mulkning egasi yagona tamoyili benefitsiar mulkdorga berilgan ta'rif zid emasmi degan savol vujudga kelishi tabiiy.

Ushbu xolat borasida **I.B.Zokirov** va **A.A.Ivanovlarning** ta'kidlashicha, ingliz–amerika huquq tizimida mulkni talqin etishning asosiy jihati bo'lingan (ikkilangan) mulkning mavjudligi hisoblanadi. «Bir ashyoga — bitta mulk huquqi» tamoyili bu o'rinda amal qilmaydi. Buning o'rniga bir necha shaxslarni bir ashyoga nisbatan mulk huquqining mazmuni va miqdori ishtirokchilarning kelishuvi orqali belgilanadi. Qit'a huquqida esa ashyoviy huquqlar turlari va mazmuni ob'ektiv huquqda qayd etilgan bo'lib, bu esa har ikkala tizim o'rtasidagi farqni yaqqol ko'rsatadi.

**I.B.Zokirov** quyidagilarni ta'kidlagan: Qit'a huquq tizimida mulk huquqini talqin etishda Rim an'analariga va eng avvalo, “ bir ashyoga nisbatan ikkita to'liq mulk huquqi bo'lishi mumkin emas” degan asosiy tamoyilgan kelib chiqadi.

Mulk huquqi yagona va bo'linmasdir. Bo'lingan yoki ikkilangan mulk bo'lishi mumkin emas. Mulk huquqini ushbu doirasiga sig'maydigan xayotiy vaziyatlarning xususiyatlari yo o'zgalar mulkiga bo'lgan huquqlarda yoki u yoki bu obyektga nisbatan u yoki bu subyektning mulk huquqining o'ziga xosliklarini belgilab qo'yishda ifodalanishi mumkin. Garchi keyingi vaqtlarda qit'a huquqi tomonidan ingliz-amerika huquqining mutlaqo qarama qarshi tamoyillaridan kelib chiquvchi konstruksiyalar o'zlashtirilayotgan bo'lsa ham, biroq ular o'rnashib qolgan an'analarni buzmaganda holda moslashtirilmoqda ishonib topshirilgan mulk o'rniga mol-mulkni ishonchli boshqarish belgilangan.

Benefitsiar mulkni fuqarolik munosabatlarida normal ishtirokini ta'minlovchi ko'rsatgichlarni aniqlash yuzasidan olimlar turlicha fikrlarni ilgari surganlar.

**S.A.Brown** Xususiy mulk mulkchilikning shartli bo'linishiga imkon beradi - huquqiy mulk bir shaxsda va benefisiar mulk boshqa shaxsda “benefisiar egasi” mulkning haqiqiy egasidir. Mulk boshqa nomda ro'yxatdan o'tkazilishi yoki haqiqiy egasining ishonchiga topshirilishi mumkin, ammo “benefisiar” mulkka egalik huquqini oxir-oqibat amalga oshirishi mumkin bo'lgan shaxsdir ta'kidlasa, **Servantes** hamda **Weeghel** kabi ko'plab tadqiqotchilar nuqtai nazardan, benefisiar mulk tushunchasining kelib chiqishini ingliz huquqi, xususan, 12-13-asrlardagi Angliyaning ishonch qonuni bilan bog'lashladi. Ular bu atama huquqiy egalik tushunchasiga qarama-qarshi sifatida qabul qilinishini kuzatdilar.

**Kryzhanovskaya** benefisiar mulk atamasi umumiy huquq mamlakatlarida yerni sotish shartnomasida uchrashini shuningdek aniq ekvivalent atama yo‘qligi yozib qoldirgan. Shuningdek **A.V.Gidirim** dastlab benefisiar mulk bilan bog‘liq munosabatlar Buyuk Britaniyaning trast huquqida ishonchli mulkdan yoki daromaddan asosiy foyda oluvchi shaxs va mulkning asosiy rasmiy egasi o‘rtasidagi farqni aniqlash maqsadida paydo bo‘lganligini ta’kidlaydi.

Keyinchalik xalqaro munosabatlarda ikki tomonlama soliq to‘lash bo‘yicha shartnomalardan noto‘g‘ri foydalanishda namoyon bo‘la boshladi.

Bundan tashqari Benefisiar kontseptsiyasining uchinchi “turi” ma’muriy va moliyaviy huquq sohasiga taalluqlidir va korporativ tuzilmaning yakuniy benefitsiarining nomini oshkor qilish masalalari bilan bog‘liq. Shaxsni benefisiar mulkdor deb e’tirof etish masalasi nafaqat ilmiy munozaralar, balki so‘nggi o‘n yilliklardagi huquqni qo‘llash amaliyotida, jumladan, iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarning ma’muriy va sud amaliyotida ham jiddiy tortishuvlarga sabab bo‘lmoqda deb e’tirof etadi.

Yuridik lug‘atlarga murojaat qilish orqali kimning “**benefisiar**” deb hisoblanishi haqida umumiy tavsiflarni ham topish mumkin. Masalan, **Blekning** qonun lug‘ati, 6-nashrida, “**benefisiar mulkdor**” deganda mulkka egalik huquqiga ega bo‘lmagan, lekin mulkka egalik qilishning odatiy hodisasi bo‘lgan mulk huquqiga ega bo‘lgan shaxs deb ta’riflanadi .

Huquqiy lug‘at, 7-nashrda “**benefisiar mulk egasi**” degan ta’rifi “bir narsaning egasi sifatida kapitalda e’tirof etilgan shaxs, chunki foydalanish va nazorat shu shaxsга tegishli, garchi yuridik nom boshqa bировга tegishli bo‘lsa ham kabi ta’riflarni ko‘rishimiz mumkin.

Batafsilroq va aniq ta’riflar boshqa manbalardan, masalan, ma’lum bir qonun doirasida ushbu iboralarni qo‘llash bilan bog‘liq yoki sud qarorlaridan olinishi mumkin.

Hususan bugungi kunda milliy qonunchiligimizda benefitsiarga oid masalalar qonun darajasida 4 ta hujjatda belgilangan, qonunosti hujjatlarda esa 100 ga yaqin hujjatda uchraydi.

Xususan “**Davlat xaridlari to‘g‘risida**” gi qonunda **benefitsiar mulkdor** — pirovardida mulk huquqlariga egalik qiladigan yoki tovarlar (ishlar, xizmatlar) yetkazib beruvchini amalda nazorat qiladigan jismoniy shaxs, “**Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida**”gi qonunida esa **oxirgi benefitsiar mulkdor** — yuridik shaxs bo‘lgan, bank aksiyalarining potensial oluvchisiga yoki bu aksiyalarga bevosita yoxud bilvosita egalik qiluvchiga bevosita yoki bilvosita egalik qiladigan yoxud uni nazorat qiladigan jismoniy shaxs ekanligi ko‘rsatilgan.

Shu bilan birga O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Bosh prokuratura huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamentining 2018-yil 14-noyabrdagi 145, 45-son qarori asosida tasdiqlangan Auditorlik tashkilotlari uchun jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo‘yicha ichki nazorat qoidalariga ko‘ra **benefitsiar mulkdor**



yakuniy natijada mulk huquqiga egalik qiluvchi yoki mijozni haqiqatda nazorat qiluvchi jismoniy shaxs, shu jumladan manfaatini ko'zlagan holda pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog'liq operatsiya amalga oshirilayotgan yuridik shaxs deb belgilangan.

Xususan **“Kripto-aktivlar aylanmasi sohasidagi xizmatlar provayderlari faoliyatini litsenziyalash tartibi”** to'g'risidagi nizomga muvofiq oxirgi benefitsiar mulkdor deb xizmatlar provayderini bevosita yoki bilvosita ta'sis etuvchi yoxud uning ustav jamg'armasidagi (kapitalidagi) ulushlariga (aksiyalariga) bevosita yoki bilvosita egalik qiluvchi yoxud ushbu shaxsga bevosita yoki bilvosita egalik qiladigan yoxud uni nazorat qiladigan jismoniy shaxs” deb ta'riflanman.

«Biroq, mazkur hujjatlarda benefitsiar tushunchasiga nisbatan aniq mezonlar belgilanmagan. Keltirilgan ta'riflar umumiy bo'lib, xalqaro standartlarda belgilangan 25 foiz egalik (nazorat) qilish, ya'ni eng asosiy elementi ko'rsatilmagan. Natijada bir dona aksiyaga ega bo'lgan yoki kompaniyaning kichik bo'limi faoliyatini nazorat qilayotgan har qanday shaxsni benefitsiar safiga kiritish mumkin. ***Bu holat “benefitsiar mulk” va “benefitsiar mulkdorlarga” oid ta'rifni yanada oydinlashtirishni taqozo etadi.***

Benefitsiar mulk bilan bog'liq munosabatlarda asosan *yuridik shaxslar, mol-mulkni ishonchli boshqaruvchi kompaniyalar, trust, kompaniyalarda xizmat ko'rsatuvchi tuzilmalar, shuningdek aksiyadorlik jamiyatlari affilangan shaxslari hamda davlat tasarrufidan chiqarish va xususiy lashtirish jarayonida mulkni oluvchi shaxlar* orasida vujudga keladi.

**Benefitsiar mulk tarkibiga ko'chmas mulk, shaxsiy mulk (masalan, san'at yoki zargarlik buyumlari kolleksiyalari, avtomobil va kitoblar), moliyaviy aktivlar (masalan, pul mablag'lari, bank hisoblari va aktsiyalari) va boshqa turdagi ashyolarni kiritishimiz bilan birga hozirgi paytda eng dolzarb masallalardan biri bo'lgan kriptovalyutani ham kiritishimiz maqsadga muvofiq.**

Xususan “Kripto-aktivlar aylanmasi sohasidagi xizmatlar provayderlari faoliyatini litsenziyalash tartibi to'g'risidagi nizomga muvofiq oxirgi **“ benefitsiar mulkdor** — xizmatlar provayderini bevosita yoki bilvosita ta'sis etuvchi yoxud uning ustav jamg'armasidagi (kapitalidagi) ulushlariga (aksiyalariga) bevosita yoki bilvosita egalik qiluvchi yoxud ushbu shaxsga bevosita yoki bilvosita egalik qiladigan yoxud uni nazorat qiladigan jismoniy shaxs” deb ta'riflangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-apreldagi 5464-sonli Farmoyishi bilan tasdiqlangan “O'zbekiston Respublikasining fuqarolik qonunchiligini takomillashtirish Konsepsiyasi” bilan ushbu sohani takomillashtirish yo'nalishlari belgilangan. Mazkur Konsepsiyaga muvofiq fuqarolik-huquqiy javobgarlik institutini takomillashtirish, korporativ munosabatlarni Fuqarolik kodeksining tartibga solish predmeti doirasiga kiritish, kreditor va qarzdorlar

huquqlarining ishonchli kafolatlarini ta'minlash, jamiyat va xalqaro standartlarning axloqiy prinsip va ma'naviy me'yorlari («halollik», «adolat», «oqillik» va boshqa prinsiplar)ni inobatga olgan holda fuqarolik-huquqiy munosabatlarning amaldagi prinsiplarini takomillashtirish va yangilarini joriy qilish, istalgan manfaatdor shaxslarga ishtirok etish huquqi taqdim etilgan holda yuridik shaxslar faoliyati bilan bog'liq qarorlar bo'yicha jamoaviy nizolashish tartibini takomillashtirish. Yuridik shaxs direktorining fidutsiar majburiyatlari institutini kiritish nazarda tutilgan.

**Fidutsiar munosabatlar** qit'a huquq tizimida ham, musulmon huquq tizimida ham mavjud bo'lgan. Biroq, bunda mol–mulkni bir shaxs tomonidan boshqa shaxs manfaatlar uchun boshqarish holatlari ko'pchilik vaziyatlarda mulkdor — xo'jayin va uning xizmatkori o'rtasidagi munosabatlarda namoyon bo'lgan. Shu bilan birga, odat huquqi normalari asosida yaqin qarindoshlar yoki davlat organlari tomonidan voyaga yetmagan shaxslarning mol–mulklarini boshqarib kelingan.

Shuni ham esdan chiqarmaslik kerakki, fidutsiar munosabatlarga o'xshash holatlar ilgari vasiylik va homiylik ostidagi mol–mulkka vasiy tayinlash holatlarida ham kuzatilgan. Masalan, 1963 yilgi Grajdanlik kodeksi bo'yicha bedarak yo'qolgan fuqaroning mulkini qo'riqlash va idora etish (19-modda), vasiyatning ijro etilishi (597-modda). Lekin, bunda fuqarolarga tegishli mulk asosan shaxsiy mulk bo'lganligi sababli ham mazkur institut o'z o'rnida tatbiq etilmagan.

H. Rahmonqulovning ta'kidlashicha iste'mol qilinmaydigan ashyolar ularga hos hususiyatlarga ko'ra ijara, *ishonchli boshqarish* va boshqa o'zganing mol-mulkidan vaqtincha foydalanish bo'yicha tuziladigan bitimlarning obyekti bo'lishi mumkin.

Shu o'rinda benefitsiar mol–mulk (trast) ning ingliz–amerika huquq tizimi va qit'a huquq tizimida qo'llanilishidagi farqli jihatlariga e'tibor qaratish lozim bo'ladi. Zero, biz mol–mulkni ishonchli boshqarishni qit'a huquq tizimi qonunchiligi, xususan, shu huquq tizimiga mansub O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi asosida fuqarolik–huquqiy tartibga solinishini tahlil etish maqsadga muvofiq.

Bunda ishonchli mulk huquqiga ega bo'lgan ishonchli shaxsning (inglizcha - ishonchli boshqaruvchi) huquqlarini mulkka foydali manfaatdor bo'lgan benefitsiarlarning huquqlaridan ajratib turadigan inglizcha trast qonuni bilan chambarchas kesishadi. Ingliz trast an'anasiga ko'ra, ishonchli shaxs mulkni o'z manfaati uchun emas, balki benefitsiarlarning manfaati uchun boshqaradi. Shunga ko'ra, benefitsiar mulkdor ishonchli shaxsga nisbatan ishonch asosida majburiyatlarni yuklaydi .

Benefitsiar mulkdor ishonchli mulkka qonuniy egalik qilmaydi, lekin bu mulkka nisbatan boshqa o'ziga xos huquqlarga ega hisoblanadi

Milliy qonunchiligimizda bevosita ishonchli boshqaruv shartnomasi *trast* qonuni bilan mos keladi faqat manfaatdor shaxs va ishonchli boshqaruvchilarning huquq va majburiyatlari orasida



farqlar mavjud.

Bu shuni anglatadiki Ingliz huquqida ham milliy qonunchiligimizda ham ushbu munosabat kesishgan nuqta bu ishonch hisoblanadi, bunda bir shaxs mulkka egalik huquqiga ega bo‘lib, bu mulkni boshqa shaxs manfaati uchun saqlash va undan vijdonan foydalanish majburiyatini oladi.

B.Topildiyev mazkur mulk shaklining mazmuni shuni anglatadiki, ishonchli mulkni belgilovchi, ya’ni muassis (settlor) sifatida ishtirok etayotgan shaxs ishonchli mulkdor (trustee) deb nomlanuvchi ikkinchi tarafga mol–mulkni o‘zi ko‘rsatgan bir yoki bir necha shaxs — **foyda oluvchi(benefitsiar)**, ya’ni benefisiar (beneficiary) manfaatini ko‘zlab boshqarish uchun topshishini ta’kidlab o‘tgan.

**S.A.Xoxlov, V.A.Doziertsev, N.D.Egorov, E.A.Suxanov, A.L.Makovskiy** kabi olimlar ishonchli boshqaruv faqat majburiyatlar huquqini ishonchli boshqaruv modeliga ekanligini tan oladi.

Boshqa olimlar ishonchli boshqaruvni “cheklangan mulk huquqining mustaqil turidan boshqa narsa emas” deb ta’riflaydilar.

**A.B.Sirbo** ishonchli boshqaruv shartnomasining maqsadi bo‘linadigan mulkiy munosabatlarni yaratish ekanligini tan olishga asoslanadi. O‘z navbatida, biz director tomonidan uning nomidan va uning manfaatlarini ko‘zlab ish yurituvchi soxta shaxsni yaratishni ustuvor maqsad deb bilamiz. Bu pozitsiya ishonch institutiga ega bo‘lmagan kontinental huquq sifatida Rossiya qonunchiligi uchun maqbulroq ekanligini qayd etgan.

### XULOSA

Fuqarolik kodeksining 849-moddasida mol-mulkni ishonchli boshqarish shartnomasi bo‘yicha bir taraf (boshqaruvning muassisi) ikkinchi tarafga (ishonchli boshqaruvchiga) mol-mulkini muayyan muddatga ishonchli boshqaruvga topshiradi, ikkinchi taraf esa ushbu mol-mulkni boshqaruvning muassisi yoki u ko‘rsatgan shaxs (foyda oluvchi) manfaatlarini ko‘zlab boshqarish majburiyatini oladi.

Mol-mulkni ishonchli boshqarishga topshirish bu mol-mulkka mulk huquqining ishonchli boshqaruvchiga o‘tishiga olib kelmaydi deb belgilab qo‘yilgan.

Ingliz huquqida ishonchi boshqaruvchi ham benefitsiar mulkdor ham mulk huquqiga ega bo‘ladi.

Bu holat milliy ashyoviy huquq mulk huquqini ikkilanganligini tan olmaydi. Mol-mulkning mulk huquqi faqat bir ashyoviy huquqiy tenglikka ega.

Ingliz huquqidan farqli ravishda benefitsiar mulk ishonchli boshqaruvchiga o‘tishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Ingliz huquqida ishonchi boshqaruvchi ham benefitsiar mulkdor ham mulk huquqiga ega bo‘ladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Olli Ryyanen, Skandiya huquqi, The Concept of a Beneficial Owner in the Application of Finnish Tax Treaties Stokgolm institute 2009.
2. Elena Kryzhanovskaya, The beneficial owner concept in civil law countries. scandinavian perspective, 2012.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5464-son farmoyishi.
5. Luca Rubini, Oxford Academic Books, 2009
6. Евразийская группа по противодействию легализации преступных доходов финансированию терроризма Mutual Evaluation Report of the Republic of Uzbekistan.
7. Bryan.A, Black's Law Dictionary (8 th.2004)
8. Koliyeva.A.E. Договор доверительного управления: понятие и правовая природа. 20159.
9. S.A.Vladislav. Отечественный и зарубежный опыт гражданско-правового регулирования фидуциарных отношений: история и современность. 2008.
10. R. Topildiyev. Mol–mulkni ishonchli boshqarish tushunchasi va uning shakllanishi.
11. S. A. Brown. Beneficial Ownership and the Income Tax Act. The University of Calgary. 2003
12. <https://www.law.cornell.edu/wex/beneficiary>
13. <https://lex.uz/docs/-4272621>
14. <https://www.fatf-gafi.org/en/home.html>